

ONA TILI DARSLARIDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Raxmatova Zilola

*Alisher Navoiy nomidagi toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti,
3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarining yosh avlodda nutq madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil etilgan. Nutq madaniyati tushunchasi, uning muloqot jarayonidagi roli hamda shaxsning ijtimoiy hayotidagi ta’siri keng yoritilgan. Maqolada o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda ona tili darslarining metodik imkoniyatlari, interaktiv yondashuvlar va adabiy til me’yorlariga amal qilishga oid usullar tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonlarida qo‘llaniladigan amaliy mashg‘ulotlar, bahs-munozaralar, matnli ishlanmalar va ijodiy topshiriqlarning nutq madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni haqida fikr yuritiladi. Maqolada ona tili o‘qituvchisining roli, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va nutqiy faollikni oshirishga qaratilgan takliflar ilgari suriladi.

Kalit so’zlar: Nutq madaniyati, ona tili darslari, adabiy til me’yorlari, muloqot, og‘zaki nutq, yozma nutq, pedagogik metodika, interaktiv yondashuv, o‘quvchi faolligi.

Kirish

Insoniyat jamiyati taraqqiy etgan sari, odamlar o‘rtasidagi muloqot, o‘zaro tushunish va fikr almashish madaniyatining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Muloqot jarayonida inson o‘zining dunyoqarashi, fikrlash darajasi, tarbiyasi va madaniyatini ifoda etadi. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida har bir fuqaroning og‘zaki va yozma nutqda aniq, ravon, tushunarli hamda madaniyatli tarzda fikr bildirishi ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli ishtirok etishining muhim shartlaridan biriga aylangan. Shu nuqtai nazardan qaralganda, jamiyatda nutq madaniyatini shakllantirish va uni rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida qaraladi.

Nutq madaniyati – bu shunchaki go‘zal va to‘g‘ri so‘zlash emas, balki fikrni adabiy til me’yorlariga muvofiq, mantiqan asoslangan, izchil va madaniyatli tarzda ifoda eta olish san’atidir. Bunday ko‘nikmalar esa o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, balki o‘quv davridan boshlab, ayniqsa, maktabdagi ona tili darslarida bosqichma-bosqich shakllantiriladi. Ona tili fani nafaqat grammatik bilimlarni o‘rgatadi, balki o‘quvchini o‘z fikrini mustaqil va erkin bayon qilishga, muloqotda adabiy til me’yorlariga amal qilishga, madaniyatli va tushunarli so‘zlashga yo‘naltiradi.

Shu boisdan, ona tili darslarining mazmuni, metodik yondashuvi va o‘qituvchining mahorati orqali o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish imkoniyati kengayadi. Bu

jarayon bolalarning shaxsiy taraqqiyoti, fikrlash salohiyati va jamiyatda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Bugungi ta’lim tizimida bu boradagi ishlarni kuchaytirish, zamonaviy uslublarni joriy etish orqali nutq madaniyatiga ega avlodni tarbiyalash eng muhim vazifalardan biridir.

Nutq madaniyati tushunchasi va uning ahamiyati

Nutq madaniyati – bu insonning og‘zaki va yozma shakldagi ifodasi orqali madaniy, mantiqiy va estetik mezonlarga mos ravishda fikr bildirishi, o‘z fikrini aniq, izchil, adabiy til normalariga asoslanib ifoda etishidir. Bu tushuncha shunchaki chiroyli gapirish yoki yozish bilan cheklanmaydi. Unda fikrning mazmuni, uslubiy tozaligi, muloqotdagi axloqiy yondashuvlar, tinglovchiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish kabi jihatlar mujassamdir.

Nutq madaniyati har bir insonning ma’naviy dunyosini, madaniy saviyasini, tafakkurini va estetik qarashlarini namoyon etuvchi ko‘rsatkichlardan biridir. Inson qanday so‘zlashi, qanday iboralar tanlashi, gapda qanday ohangni ishlatishi uning shaxsiy fazilatlari, tarbiyasi, bilim doirasi va dunyoqarashidan dalolat beradi. Shu bois nutq madaniyati jamiyatda shaxsning ijtimoiy obro‘sni, muvaffaqiyatli faoliyati va boshqalar bilan samarali muloqot qurishida muhim rol o‘ynaydi.¹

Zamonaviy kommunikatsion muhitda nutq madaniyatiga ega bo‘lish, ayniqsa yoshlar uchun, juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi axborotga boy davrda odamlar ko‘p hollarda elektron aloqa vositalari orqali muloqot qiladilar. Bu holat esa ifoda ravonligi, izchilligi va madaniy yondashuvni talab qiladi. Adabiy til me’yorlariga amal qilinmagan, betartib, loqayd yoki qo‘pol nutq jamiyatda tushunmovchilik, ziddiyat va salbiy munosabatlarga olib kelishi mumkin.

Shu bois ta’lim jarayonida, xususan ona tili darslarida o‘quvchilarga to‘g‘ri nutq tuzish, til vositalaridan oqilona foydalanish, fikrni izchil va tushunarli tarzda bayon qilish, muloqot etikasiga rioya qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish zarur. Bu faqat tilshunoslik emas, balki umumiy madaniyatning bir bo‘lagi sifatida qaraladi. Nutq madaniyatiga ega inson nafaqat bilimli, balki hurmatli, e’tiborli va jamiyatda faol muloqotchi bo‘ladi. Shu jihatdan, nutq madaniyati shaxsning barkamol rivojlanishi va ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.²

Ona tili darslarining imkoniyatlari

Ona tili darslari o‘quvchilarni nafaqat til qoidalariga o‘rgatadi, balki ularni adabiy til normalariga amal qilishga, go‘zal nutq egallashga yo‘naltiradi. Dars jarayonida o‘quvchilar matnlar bilan ishslash, fikr bildirish, munozara yuritish, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

¹ Jo‘rayev, N. “O‘zbek tilining nazariy asoslari”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

² Qilichev, N. va boshqalar. “Nutq madaniyati”. – Toshkent: Fan, 2016.

Misol uchun, matn ustida ishlash darslari orqali o‘quvchilar gap tuzilishi, so‘z boyligini oshirish, sinonim va frazeologik birliklardan to‘g‘ri foydalanish, fikrni mantiqan bog‘lashni o‘rganadilar. Bu esa ularning nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, diktantlar, insho yozish, hikoya qilish, rolli o‘yinlar kabi topshiriqlar o‘quvchilarning muloqot madaniyatini oshiradi, o‘z fikrini erkin va tushunarli tarzda ifoda qilishga o‘rgatadi.³

Zamonaviy yondashuvlar

Bugungi kunda ta’lim sohasida yuz berayotgan yangilanishlar, pedagogik jarayonga ilg‘or texnologiyalarning joriy etilishi ona tili darslarini tashkil etishda ham yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirishda an‘anaviy dars uslublarini zamonaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa ta’lim samaradorligini oshirib, o‘quvchilarning nutqiy faolligini kuchaytiradi, mustaqil fikrlash, so‘z boyligini oshirish va to‘g‘ri muloqot qilish malakasini shakllantiradi.

Zamonaviy yondashuvlarning markazida o‘quvchi shaxsi, uning individual imkoniyatlari va fikrlash darajasi turadi. Masalan, kommunikativ yondashuv – bu dars jarayonida o‘quvchilarni faol muloqotga chorlab, ularga nutqiy vazifalarni mustaqil hal etish imkonini yaratadi. Darsda savol-javoblar, bahs-munozaralar, rol o‘yinlari va guruqli ishlanmalar orqali o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Yana bir muhim usul bu interfaol yondashuv bo‘lib, bunda o‘quvchilar o‘zaro fikr almashadilar, o‘z nuqtai nazarlarini asoslaydilar, turli fikrlarga hurmat bilan qarashni o‘rganadilar. Interfaol metodlar orqali o‘qituvchi emas, balki o‘quvchi dars markaziga chiqadi, bu esa uning nutqiy faolligini oshiradi. “Aqliy hujum”, “Insert”, “Fishbone”, “Klaster”, “Venn diagrammasi” kabi metodlar aynan shunday imkoniyatlar yaratadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo‘llash ham zamonaviy yondashuvlarning muhim jihatlaridan biridir. O‘quvchilarni multimedya materiallari, video darslar, elektron matnlar, slaydlar va mobil ilovalar yordamida mavzuga jalb qilish mumkin. Masalan, o‘quvchi notiqlik san’ati haqida video ko‘rganidan so‘ng o‘z nutqini qanday yaxshilash kerakligi haqida fikr yuritadi. Bu esa nafaqat eshitish, balki ko‘rish va sezish orqali o‘rganishga zamin yaratadi.

Ijodiy yondashuv esa o‘quvchilarning o‘z fikrini erkin ifoda etishiga, badiiy-estetik tasvirlar bilan ishlashiga yordam beradi. Insho yozish, hikoya tuzish, sahna ko‘rinishlari yaratish, maqol va matallar asosida nutqiy mashqlar bajarish orqali ularning tili boyiydi, nutqi silliqlashadi, madaniy ifodalar bilan boyiydi.

Baholash tizimidagi yangiliklar ham zamonaviy yondashuvlarning ajralmas qismidir. Endilikda baholash faqatgina to‘g‘ri javoblar emas, balki o‘quvchining fikr yuritish uslubi,

³ Raxmonov, I. “Til madaniyati asoslari”. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2020;

savolga yondashuvi, asoslash darajasi va nutqiy ifoda madaniyatini hisobga oladi. Bu esa har bir o‘quvchining rivojlanishiga alohida e’tibor berishni ta’minlaydi.⁴

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, nutq madaniyatini shakllantirish — bu uzluksiz jarayon bo‘lib, u bolalikdan, ayniqsa maktab yoshidan boshlab rivojlantirilishi kerak. Ona tili darslari esa bu borada asosiy tayanch maydon hisoblanadi. O‘qituvchining malakasi, darsning mazmuni, o‘quvchilarning faolligi — bularning barchasi yosh avlodda nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu sababli, har bir ona tili o‘qituvchisi darslarini nafaqat grammatik qoidalar bilan, balki go‘zal nutq namunalari, muloqot madaniyati va fikr erkinligini rivojlantirishga qaratgan bo‘lishi lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Jo‘rayev, N. “O‘zbek tilining nazariy asoslari”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Qilichev, N. va boshqalar. “Nutq madaniyati”. – Toshkent: Fan, 2016.
3. Raxmonov, I. “Til madaniyati asoslari”. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2020.
4. Karimov, M. “Ona tili o‘qitish metodikasi”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.

⁴ Karimov, M. “Ona tili o‘qitish metodikasi”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018;